



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TADBIRKORLIKNING BARQAROR RIVOJLANISH MODEL: XORIJ TAJRIBASI VA O‘ZBEKISTON AMALIYOTI

Muallif: Davronova Maftuna Baxodir qizi ¹

Affilyatsiya: Xalqaro Nordik universiteti, Iqtisodiyot va Biznesni boshqarish kafedra
1-bosqich Magistranti ¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17558083>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlikning barqaror rivojlanish modeli: xorij tajribasi (Qozog‘iston, Ozarbayjon, Tojikiston) va O‘zbekiston amaliyoti masalalari yoritilgan. Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, barqaror tadbirkorlik rivojlanishi uchun raqamli iqtisodiyot imkoniyatlaridan samarali foydalanish, innovatsion biznes modellar yaratish va xorijiy tajribani lokal sharoitlarga moslashtirish zarurligini uchun model taklif etilgan.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

Kalit soʻzlar: Raqamli iqtisodiyot, raqamlashtirish, barqaror rivojlanish, xalqaro tajriba, iqtisodiy samaradorlik, tadbirkorlik.

KIRISH

Hozirgi vaqtda global iqtisodiyot rivojlanishning asosiy tendensiyasidan biri bu raqamli texnologiyalar asosidagi yangi iqtisodiy munosabatlar tizimining shakillanishidir. Raqamli iqtisodiyot nafaqat ishlab chiqarish va hizmat ko'rsatish sohalarida innovatsion echimlarni joriy etishni, balki butun iqtisodiy muhitning yangi formatda faoliyat yuritishini ta'minlamoqda. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning kengayishi tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini oshirish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashning asosiy omillaridan biri sifatida qaralmoqda.

Jumladan, raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlikning barqaror rivojlanish modelini ishlab chiqish va takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ayniqsa, global raqamlashuv jarayonlarida Markaziy Osiyo davlatlari — Qozog'iston, Ozarbayjon va Tojikiston tajribalari alohida qiziqish uyg'otmoqda. Bu mamlakatlarda raqamli iqtisodiyotni joriy etish bo'yicha davlat dasturlari, elektron hukumat tizimlari, raqamli infratuzilmalar va innovation startap ekotizimlari jadal rivojlanmoqda. Ularning amaliyoti O'zbekiston uchun muhim tajriba manbai bo'lib, milliy iqtisodiyotda raqamli tadbirkorlikni rivojlantirish strategiyasini belgilashda ilmiy asos bo'lib hizmat qilishi mumkin.

Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish jarayoni turli mamlakatlarda farqli dinamikada sodir bo'lmoqda. Hususan, Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari — Qozog'iston, Ozarbayjon va Tojikistonda raqamlashuv siyosatida muayyan o'xshashliklar va farqlar mavjud. Ushbu mamlakatlarda raqamli iqtisodiyotni joriy etishga oid davlat strategiyalari, elektron xukumat tizimlari, raqamli infratuzilmalar va innovatsion ekotizimlarni rivojlantirish bo'yicha muntazam ishlar amalga

oshirilmoqda. Ular tajribasini tahlil qilish O'zbekiston uchun muhim ahamiyatga ega, sababi mamlakatimiz ham raqamli iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish sari qadam tashlamoqda.

O'zbekiston Respublikasida so'ngi yillarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan. Prezident Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan qabul qilingan «Digital Uzbekistan – 2030» strategiyasi mamlakatda raqamli infratuzilmani takomillashtirish, raqamli xizmatlar turlarini kengaytirish va raqamli tadbirkorlik muhitini yaratishga qaratilgan. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonida ma'lum institutsional va iqtisodiy to'siqlar saqlanib qolmoqda. Masalan, raqamli savodxonlik darajasi pastligi, kichik va o'rta biznes sub'ektlarining raqamli texnologiyalardan foydalanish salohiyati etarlicha rivojlanmaganligi, axborot havfsizligi va kibertahdidlarga qarshi etarli himoya mexanizmlarining mavjud emasligi shular jumlasidandir.

Qozog'istonda raqamli iqtisodiyot «Digital Kazakhstan» strategiyasi asosida barqaror rivojlanmoqda. Bu mamlakatda elektron hukumat tizimi va raqamli biznes muhiti yaratilgan, innovatsion klasterlar tashkil etilgan. Ozarbayzhon esa «ASAN xidmət» va «MyGov» kabi elektron davlat xizmatlari orqali raqamli infratuzilmani mustahkamlamoqda. Bu mamlakatlarda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi tadbirkorlik muhitining shaffofligi, raqobatbardoshligi va innovatsion faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shunday qilib, ushbu mamlakatlar tajribasini tahlil qilish va ulardagi ijobiy natijalarni O'zbekiston amaliyotiga moslashtirish milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

ASOSIY QISM

Barqaror rivojlanish modeli — iqtisodiy o'sish, ijtimoiy adolat va ekologik barqarorlikni birlashtiruvchi konsepsiyadir. Tadbirkorlik nuqtai nazaridan, quyidagi omillar muhim: biznesni boshlash va yuritish imkoniyati, raqamli infratuzilma, moliyalashtirish, innovatsiya, raqamli ko'nikmalar.

Raqamli iqtisodiyot esa — AKT hamda raqamli platformalar orqali iqtisodiy faoliyatni tashkil qilish, mahsulot va xizmatlarda raqamli transformatsiya qilishni anglatadi. Demak, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi tadbirkorlik uchun yangi imkoniyat ochadi — masalan, onlayn savdo, fintech, startaplar, IT-eksport va h.k. Biroq barqaror rivojlanish uchun tadbirkorlik «ko'p-qirrali» bo'lishi shart: ish o'rinlari yaratish, qo'lga kirish imkoniyati, raqamli inklyuziya (raqamli tenglik) va boshqalar.

1-jadval

Markaziy Osiyo davlatlarida raqamli iqtisodiyot va tadbirkorlik rivojlanishi tahlili
(2025 yil holatiga ko'ra)

Ko'rsatkichlar	Qozog'iston	Ozarbayjon	Tojikiston	O'zbekiston
Raqamli strategiya nomi	«Digital Kazakhstan»	«Digital Azerbaijan»	«Digital Tajikistan»	«Digital Uzbekistan – 2030»
Boshlanish yili	2018	2020	2021	2020
IT-investitsiyalar (mlrd \$)	2.6	1.8	0.9	2.1
Raqamli tadbirkorlik sub'yektlari soni (mingta)	23	17	5	19
E-commerce hajmi (mlrd \$)	3.4	2.9	0.4	2.2
Internet foydalanuvchilari ulushi (% aholi)	91.5 %	88.3 %	64.7 %	83.4 %
Startaplar soni (2024 y.)	4 800	3 200	900	2 700
Raqamli savodxonlik darajasi (% aholining ishchi qismi)	84 %	78 %	53 %	72 %

IT eksport hajmi (mln \$)	620	480	90	410
Bandlikda raqamli sektor ulushi (% jami bandlikdan)	5.8 %	4.9 %	1.6 %	3.8 %
Elektron hukumat indeksi (EGDI, 2024)	0.77	0.74	0.52	0.69
Raqamli infratuzilma sifati indeksi (ITU, 2024)	7.4/10	6.9/10	5.1/10	6.5/10

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Qozog'iston, Ozarbayjon va Tojikiston davlatlarida raqamli iqtisodiyot va raqamli tadbirkorlik rivojlanish sur'atlari turlicha kechayotganini ko'rish mumkin. **Qozog'iston** mintaqada eng ilg'or natijalarni qayd etmoqda. 2018 yildan boshlab amalga oshirilayotgan «**Digital Kazakhstan**» strategiyasi natijasida IT-investitsiyalar hajmi 2,6 milliard dollarga yetgan, raqamli tadbirkorlik sub'yektlari soni 23 mingdan oshgan va elektron tijorat bozori 3,4 milliard dollarga teng bo'lgan. Bu mamlakatda raqamli infratuzilmaning kengayishi, davlat xizmatlarining avtomatlashtirilishi hamda startap ekotizimining rivojlanishi bilan izohlanadi.

Ozarbayjon esa 2020 yilda qabul qilingan «**Digital Azerbaijan**» dasturi orqali qisqa muddat ichida raqamli transformatsiyada sezilarli yutuqlarga erishdi. IT-investitsiyalar 1,8 milliard dollarni tashkil etadi, bu esa iqtisodiyotning xizmat va savdo tarmoqlarida raqamli texnologiyalar jadal joriy etilayotganidan dalolat beradi. Elektron tijorat bozorining 2,9 mld dollarga hajmi mamlakatda onlayn to'lovlar va raqamli platformada xizmatlarining faol o'sishini namayon etadi.

Tojikistonda esa raqamli iqtisodiyot hali boshlang'ich bosqichda bo'ldi, «**Digital Tajikistan**» strategiyasi 2021 yildan amalga oshirilmoqda. IT-investitsiyalar hajmi 0,9 milliard dollarni tashkil etsa-da, bu mamlakat iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqqanda muhim natija hisoblanadi. Raqamli tadbirkorlik sub'ektlari soni 5 mingta atrofida bo'lib, bu mamlakatda raqamli infratuzilmani kengaytirish va internet qoplamasini yaxshilash zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, uch davlatda ham raqamli iqtisodiyot rivojlanishi davlat siyosati, investitsiya muhiti va infratuzilma darajasi bilan bevosita bog'liq. Qozog'iston modelini tahlil etish O'zbekiston uchun raqamli transformatsiya jarayonida amaliy ahamiyatga ega bo'lib, bu tajriba mahalliy tadbirkorlik sub'ektlarini raqamli iqtisodiyotga integratsiya qilishda foydali bo'ladi.

XULOSA

O'tkazilgan tahlillar natijasida ko'ra, raqamli iqtisodiyot bugungi global iqtisodiy makonda tadbirkorlikni barqaror rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri sifatida shakllanmoqda. Raqamli texnologiyalar joriy etilishi nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, balki innovatsion biznes modellarni yaratish, yangi ish o'rinlarini tashkil etish va iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish imkonini bermiqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot rivojlanishining muvaffaqiyati ko'p jihatdan davlat strategiyasining aniqligi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi, raqamli savodxonlik darajasi va innovatsion ekotizimning faolligiga bog'liq. **O'zbekiston amaliyoti** nuqtai nazaridan, «**Digital Uzbekistan – 2030**» strategiyasi mamlakatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, O'zbekiston uchun xorijiy tajribalarning o'rganilishi raqamli tadbirkorlikni rivojlantirishda milliy model yaratish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va raqamli transformatsiya jarayonlarini tezlashtirish imkonini beradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. World Bank. (2020). Public-Private Partnerships in Infrastructure and Innovation: Global Experiences and Lessons for Developing Economies. Washington, D.C.: The World Bank.
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti – Raqamli iqtisodiyot asoslari: O'quv qo'llanma.
3. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti – Raqamli iqtisodiyot asoslari: O'quv qo'llanma.
4. Qozog'iston Respublikasi Raqamli rivojlanish, innovatsiyalar va aerokosmik sanoat vazirligi – Digital Kazakhstan Annual Report 2023.
5. Soliev, F. (2023). Institutional Development of the Digital Economy in the Republic of Tajikistan. CAREC Digital Economy Think Tank.

